# YANGI MEHNAT KODEKSI QABUL QILINDI

Manba: O‘RQ–798, 28.10.2022-y. @huquqiyaxborot



Kodeksga ko‘ra, **yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar va ular bilan bevosita bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni** huquqiy tartibga solishning asosiy prinsiplari etib quyidagilar belgilandi:

- mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash;
- mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash;
- mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik;
- mehnat huquqlari ta’minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi;
- xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo‘l qo‘yilmasligi.



## Yangi Mehnat kodeksiga ko‘ra:

- mehnatiga vaqtbay haq to‘lanadigan xodim **har xil malaka talab etiladigan ishlarni bajarganda** unga yuqori malaka bo‘yicha haq to‘lanadi;
- dam olish kuni **bayram kuniga to‘g‘ri kelsa** keyingi kunga ko‘chiriladi;
- 200 % — ishdan bo‘shatish nafaqasi **200 % gacha** to‘lanadi.

Yillik asosiy ta’til muddati kamida **21 kalendar kun** etib belgilanmoqda.

Amaldagi tartibga ko‘ra **15 ish kunidan** kam bo‘lmasligi lozim.

# KO'P YILLLIK ISH STAJI UCHUN QO'SHIMCHA TA'TIL BERISH TARTIBI JORIY ETILMOQDA

Manba: O'RQ–798, 28.10.2022-y. @huquqiyaxborot



Yangi Mehnat kodeksiga binoan, **xizmat tekshiruvi o'tkazish** tartibi belgilanmoqda.

**Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun:**

- OAVning xabarlari;
- xodimning bevosita rahbarining bildirgisi;
- murojaatlar hamda xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgan deb taxmin qilish uchun asos beradigan boshqa ma'lumotlar asos bo'ladi.



Xodimga bitta tashkilotda yoki tarmoqda **ko'p yilllik ish staji uchun** qo'shimcha ta'til berish tartibi joriy etilmoqda.




Qo'shimcha ta'til xodimning **har 5 yilllik ish staji uchun 2 kunga**, lekin jami **8 kundan ortiq bo'lmagan** muddatga ko'paytiriladi.

## ISHDAN CHETLASHTIRISH DAVRIDA XODIMNING O'RTACHA OYLIK ISH HAQI QUYIDAGI HOLLARDA SAQLAB QOLINISHI BELGILANMOQDA:



mehnatni muhofaza qilish sohasida o'quvdan, tekshiruvdan yoki majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmaganida **xodimning aybi bo'lmasa**



xodimga ish beruvchi tomonidan **shaxsiy va (yoki) jamoaviy himoya vositalari berilmagan**, shuningdek agar xodim ish beruvchi tomonidan unga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilishi munosabati bilan **ishdan chetlashtirilgan bo'lsa**

# XODIMNING SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARI MEHNAT KODEKSI BILAN MUSTAHKAMLANDI

Manba: O'RQ–798, 28.10.2022-y. @huquqiyaxborot



**Xodimning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish masalalari** Mehnat kodeksi bilan mustahkamlandi.

**Yangi mehnat kodeksiga ko'ra, quyidagi ayrim toifadagi xodimlarning mehnatini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari belgilandi:**

- masofadan turib ishlovchi xodimlar;
- kasanachilar;
- mavsumiy ishchilar;
- vaxta usulida ishlovchi xodimlar;
- alohida tarmoq (transport, tibbiyot, ta'lim, professional sport) xodimlari;
- vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan shaxslar;
- o'rindoshlik asosida ishlovchi shaxslar;
- chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;
- uy ishchilari;
- mikrofirmalarda va ish beruvchi bo'lgan jismoniy shaxslarda ishlovchi shaxslar.



Xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra **har yilgi mehnat ta'tili qismlarga bo'linishi mumkin**. Bunda ushbu ta'tilning hech bo'lmaganda bir qismi **14 kalendar kundan kam** bo'lmasligi kerak.

*Amaldagi tartibga ko'ra 12 ish kunidan kam bo'lmasligi lozim edi.*



Yangi mehnat kodeksiga ko'ra **18 yoshga to'lmagan xodimlarni, homilador ayollarni va mehnat sharoitlari o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan xodimlarni** har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi.

# XODIMLARGA NISBATAN XIZMAT TEKSHIRUVINI O‘TKAZISH INSTITUTI KIRITILMOQDA

Manba: O‘RQ–798, 28.10.2022-y. @huquqiyaxborot



**Yangi Mehnat kodeksiga ko‘ra, xodimlarga nisbatan xizmat tekshiruvini o‘tkazish instituti kiritilmoqda**



**Xizmat tekshiruvi** – xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilganligi faktini, uning sodir etilishida xodimning aybini, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, ish beruvchiga yetkazilishi mumkin bo‘lgan moddiy zararning xususiyati va miqdorini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tekshirish hisoblanadi.

Yangi Mehnat kodeksiga ko‘ra, ish haqi asosiy (bazaviy) va qo‘shimcha (o‘zgaruvchan) qismlardan iboratligi ko‘rsatilmoqda.



**Asosiy** – xodimga belgilangan mehnat normalariga (tarif stavkalariga, maoshlarga) ko‘ra haqiqatda ishlab berilgan vaqt yoki haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblanadi;



**Qo‘shimcha** – qo‘shimcha to‘lovlar, ustamalar, shuningdek mukofotlar va kompensatsiya yoki rag‘batlantirish xususiyatiga ega boshqa to‘lovlar tashkil etadi.



Adliya organlariga qonunchilikda belgilangan tartibda **yakka tartibdagi mehnat nizosining ko‘rib chiqilishi uchun** sudga murojaat qilish huquqiga egaligi belgilandi.



*Amaldagi tahrirda sudga murojaat qilish subyektlari tarkibida mavjud emas edi.*

# XODIMLARNI OMMAVIY RAVISHDA ISHDAN BO‘SHATISH PAYTIDAGI KAFOLATLAR KIRITILMOQDA

Manba: O‘RQ–798, 28.10.2022-y. @huquqiyaxborot



**Yangi Mehnat kodeksiga ko‘ra, xodimlarni ommaviy ravishda ishdan bo‘shatish chog‘idagi kafolatlar belgilab berilmoqda.**

## MEHNAT SHARTNOMASI:

- nomuayyan muddatga;
- uch yildan ko‘p bo‘lmagan muayyan muddatga tuzilishi mumkin.

*Amaldagi Mehnat kodeksida 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddat belgilangan.*

## Ommaviy ravishda ishdan bo'shatish mezonlari

- texnologiyaning, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o‘zgarishi;
- ishlar (xizmatlar) hajmining qisqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilot xodimlarining soni yoki shtati o‘zgarganligi sababli;
- tashkilot tugatilganligi munosabati bilan o‘zi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi nazarda tutilayotgan xodimlar sonining ko‘rsatkichlaridan iborat.



Yangi Mehnat kodeksiga ko‘ra, **xodimga ish haqi to‘lashni va unga to‘lanishi lozim bo‘lgan boshqa to‘lovlarni kechiktirganlik uchun** ish beruvchining moddiy javobgarligi (kechiktirilgan har bir kun uchun Markaziy bank **qayta moliyalash stavkasining 10 foizi miqdorida**) belgilanmoqda.